

**"O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATI BILAN INTEGRATSIYALASHUVINING  
DOLZARB MASALALARI VA HUQUQIY ASOSLARI"**

**Shukurov Abbos G'ulomovich**

*Samarqand Davlat Chet tillari Institut Ingliz tili 2 fakulteti II kurs talabasi*

**Jumayev Akmal G'ulom o'g'li**

*Samarqand viloyat Yuridik Texnikum I bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada "O'zbekistonning Jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvining dolzarb masalalari va uning huquqiy asoslari", O'zbekistonning jahon hamjamiyati davlatlari va BMT, YUNESKO va boshqa Xalqaro tashkilotlar bilan integratsiyalashuvining davlatimiz taraqqiyotining barqarorligida tutgan o'рни va ahamiyati, shuningdek, uning huquqiy asoslari tahlil qilish mavzusida qisqacha ma'ruza qilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Jahon hamjamiyati, Xalqaro tashkilotlar — BMT, UNESCO, MDH, Tashqi siyosat.*

Bugungi kunda O'zbekiston respublikasi huquqiy-siyosatining asosiy vazifalaridan biri — Jahon hamjamiyati davlatlari va BMT, YUNESKO, MDH kabi Xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, diplomatik va madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat. Chunki, yuqoridagi sohalar O'zbekiston Respublikasining jahon arenasidagi o'рни har tomonlama belgilab beradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash, Jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalarni o'rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida ko'ndalang bo'lib turadi. Prezident Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalari nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida tashqi siyosat qoidalari qonunlashtirildi va u jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan hamkorlik jarayonlari ortga qaytmasligining huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekistonni xalqaro huquq subyekti sifatida belgilaydigan, respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining hohish-irodasi va taklifiga ko'ra 1992-yil 2 - martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot — Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi. 1993-yil 24-avgustda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi va ish boshladi. Mamlakatimiz Prezidenti I. Karimovning BMT Bosh assambleyasining 1993-yilda bo'lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27-sentabrda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va yosh, navqiron davlat sifatida namoyon etdi.

O'zbekistonning BMT homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot — UNESCO bilan aloqalar tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993-yil 23-oktabrda UNESCOning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni UNESCO ga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'ldi. O'sha kuni Ulug'bek tavalludining 600 yilligini nishonlash UNESCO dasturiga kiritildi. 1994-yil oktabrida Parijda Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi. Samarqand, Xiva va Buxoro UNESCO ning jahon madaniy qadriyatlarini ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta obyekt bor.

Mustaqil davlat xalqaro tashkilotlarda qanchalik keng qatnashsa, u xalqaro hamjamiyatga shu darajada keng kirib boradi, jahonda tinchlik, osoyishtalik, o'zaro hamkorlik uchun kurashda tegishli darajada faol qatnasha oladi, imkoniyat taraqqiyotiga qo'shayotgan o'z ulushini yanada oshirib boradi, jahonning ilg'or davlatlari bilan tobora yaqinlashdi, ularning fan-texnika va texnologiya sohasidagi yangiliklarini amaliy qabul qilib oladi. Shu nuqtai-nazardan mustaqil O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarini yil sayin kengaytirishi juda katta ahamiyatga egadir.

Xalqaro tashkilotlarda faol qatnashish — mustaqil O'zbekistonni jahon miqiyosida tanitishning, uning xalqaro mavqeini oshirishning muhim va samarali yo'lidir.

Jahon hamjamiyati — jahonda mavjud davlatlarning hozirda insoniyat oldida turgan global muammolarni hamkorlikda hal qilishda, umumiy maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatishda birligini anglatuvchi tushuncha. Jahon hamjamiyati barcha davlatlarning suveren tengligi xalqaro huquqiy tamoyiliga asoslangan Jahon hamjamiyati xalqaro huquqda tashkilot hisoblanmaydi. Jahon hamjamiyatini aks ettiruvchi universal tashkilot — Birlashgan Millatlar Tashkilotidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida belgilanishicha, "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarining to'la huquqli sub'ektidir". O'zbekiston Respublikasi o'zini Jahon hamjamiyatining bir qismi, deb biladi, u insoniyat oldida turgan muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadi.

Mavzuning dolzarbligi: hozirgi davrda jahon taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari xalqaro munosabatlarda hamkorlikning kuchayib borishi va unga ta'sir o'tkazadigan iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hamda, ekologik omillarning mavjudligi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, Jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqeyi yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Arxiv.uz
2. Lex.uz
3. Huquqiy axborot

**ЧЕМ ОПАСЕН СИНДРОМ «ПУСТОГО» ТУРЕЦКОГО СЕДЛА?**